



ISMOIL SOMONIY MAQBARASI: BUXORONING ABADIY TIMSOLI

Bekmurodova Laylo Bahodir qizi

*Buxoro davlat pedagogika instituti xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi,
2-bosqich talabasi*

Annotasiya: Mazkur maqola Ismoil Somoniy maqbarasining tarixiy va me'moriy ahamiyatiga bag'ishlangan. Ushbu obida Buxoroning nafaqat o'tmish faxri, balki hozirgi kunga qadar yuksak qadrlanayotgan me'moriy durdonalaridan biridir. Ming yillardan beri o'z jozibasini yo'qotmagan bu yodgorlik qadimiy So'g'd me'moriy uslubining noyob namunasidir.

Kalit so'zlar: Ismoil Somoniy maqbarasi, Buxoro, tarixiy yodgorlik, me'moriy san'at, So'g'd uslubi.


Ismoil Somoniy maqbarasi Buxorodagi eng qadimiy va mashhur me'moriy yodgorliklardan biridir. Ushbu tarixiy obida shaharning g'arbida, Registon maydoni yaqinida joylashgan madaniyat va istirohat bog'ida qad ko'targan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asariga ko'ra, qadimda bu joyda Navkanda qabristoni bo'lgan. Arxeologik qazishmalar shuni aniqladiki, Ismoil Somoniy maqbarasi atrofida Somoniylar sulolasining boshqa a'zolari va ularga yaqin shaxslar dafn etilgan maqbaralar ham bo'lgan.

O'rta asrlarda Navkanda nomli ariq ham mavjud bo'lib, u mashhur geograf olimlar al-Istaxriy va Ibn Havqalning asarlarida ham tilga olingan. Ismoil Somoniy vaqfnomasiga ko'ra, Navkanda yerlari Buxoroning sharqida joylashib, g'arbda Ju-yi But yerlariga, shimolda umumiy ariq bo'yiga, sharqda yo'lga va janubda Qorako'lga olib boruvchi yo'lga tutashgan.

Ismoil Somoniy maqbarasi o'zining noyob arxitekturasini bilan e'tiborni tortadi. Uning tarhi kvadrat shaklida bo'lib, g'ishtlardan murakkab naqshlar bilan bezatilgan. Maqbara devorlari 1,8 metr qalinlikka ega, ichki qismi esa 7,2 x 7,2 metr o'lchamda. Uning gumbaz bilan qoplangan qismi 4 ta burchakdagi ustunlar




bilan mustahkamlangan. Devorlar bo'ylab 40 ta ravoq darchalari joylashgan bo'lib, bu elementlar bino tuzilishining murakkab geometrik uyg'unligini aks ettiradi.



1927-yilda o'tkazilgan qazishmalar davomida maqbara ichida ikki yog'och sag'ana topilgan. Sharqiy qismdagi sag'ana Ismoil Somoniyning qabri bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, maqbara Ismoil Somoniy tomonidan otasi amir Ahmad ibn Asadning qabri ustiga qurilgan. Maqbaraning arxitekturasida qadimgi Sug'd me'morchiligi an'analarini saqlab qolgan. Uning devorlarida joylashgan geometrik shakllar ramzlar orqali chuqur ma'no ifodalaydi.

Maqbaraning tuzilishi va ramzlarining uyg'unligi buddaviylik va moniylik diniy falsafasining ta'sirini aks ettirganday ko'rinadi. Shu bilan birga, Ismoil Somoniy maqbarasi bino loyihasi ham aniq geometrik tartibga asoslangan kosmogramma timsolini eslatadi. 1925-yilda gumbazi ta'mir qilingan maqbara 1937-1939-yillarda zax tuproqdan tozalandi va yana ta'mirlandi. Bu jarayon davomida arxeologlar binoning noyob arxitekturasini va murakkab ramziy bezaklarini chuqur o'gandilar.



Paul Nadar tomonidan 1890-yilda olingan Somoniylar maqbarasi surati

1890-yilda fransuz fotografi Paul Nadar (1856–1939) Markaziy Osiyoga sayohat qilgan va o‘z safarida Buxorodagi tarixiy obidalarni suratga olgan. Ushbu safar Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, maqsad turli xalqlar va me‘moriy yodgorliklarni hujjatlashtirish edi. Sayohat davomida Nadar Somoniylar maqbarasining eng qadimgi fotosuratlaridan birini yaratdi, bu surat hozirgacha ilmiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Ushbu surat 19-asr oxiridagi Somoniylar maqbarasining asl holatini aks ettirgan eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Surat orqali maqbaraning g‘isht terish uslubi, bezak elementlari va umumiy tuzilishi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Fotosurat Somoniylar maqbarasining keyingi yillardagi ta‘mirlash ishlari natijasida qanday o‘zgarganini tahlil qilishga yordam beradi. Bu surat ko‘plab tadqiqotlarda, jumladan, me‘moriy va tarixiy yodgorliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda asosiy vizual manba sifatida keltirilgan. Fotosurat hozirgi kunda Fransiya Milliy kutubxonasi arxivida saqlanadi.

Shunisi qiziqki, maqbaraning devorlaridagi ramzlar va naqshlar undagi uch xil diniy e‘tiqod — buddaviylik, zardushtiylik va nasroniylik elementlarini mujassamlashtirgan. Bu esa Somoniylarning dinlararo bag‘rikenglik tamoyillarini



qadrlaganidan dalolat beradi. Maqbara nafaqat Buxoroning, balki O'rta Osiyoning arxitektura va madaniyat tarixida alohida o'ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Narshaxiy, M. Buxoro tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti, 1966.
2. Saidjonov, M. Buxoro tarixiy obidalari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Nashriyoti, 2000.
3. Ginzburg, M. Buxoroning me'moriy obidalari. Moskva: Arxitektura nashriyoti, 1928.
4. Vyatkin, V. Somoniylar davri va Buxoroning yodgorliklari. Leningrad: Tarix nashriyoti, 1930.
5. Kamoliddin, Sh. O'rta Osiyo me'moriy san'ati. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.